

**Sagatova Dilrabo**

*URDU adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Taniqli o'zbek modernist shoiri Bahrom Ro'zmuhammad 1961-yilda Xorazm viloyatining Shovot tumanida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan. "Tovushsiz qadam", "Terakka yaqin yulduz", "Ikki nur", "Tinch gullaydigan daraxt", "Kunduz sarhadlar", "Soyalar suhbat" kabi she'riy to'plamlar muallifidir. Bahrom Ro'zmuhammad nafaqat shoir, balki, mohir tarjimon va jurnalistdir. Shoir XX asr nemis shoirlarining ijodidan namunalar tarjima qilgan (X.M. Entsensberger va boshqalar). "Cho'lpon – tong yulduzi demak" risolasi chop etilgan. "O'zbek modern she'riyati" kitobining tuzuvchilaridan biridir.

Bahrom Ro'zmuhammad adabiyot olamiga modernizm yo'nalishidagi ijodi bilan kirib keldi. "Modernizm – falsafa, san'at va adabiyot sohasidagi noklassik qarashlar tizimini umumlashtiruvchi atama. Kunbotish mamlakatlarida yuzaga kelib, fransuzcha "eng yangi", "zamonaviy" ma'nolarini anglatuvchi modernizm o'zini o'sha zamon hamda kelajakdagi yagona haqiqiy estetik va falsafiy yo'nalish hisoblab, olamni falsafiy-badiiy idrok etish, izohlash va tasvirlash borasida mavjud bo'lgan an'anaviy yondashuvlarni inkor qilish bilan ajralib turadi. Modernizm olam hodisalari va odamga munosabat, ulardagi turli-tuman holatlarni izohlash va tasvirlashda o'ziga xoslikka intilib, klassik yondashuv yo'sinini inkor etish yo'lidan borgan g'oyat ko'p tarmoqli falsafiy-estetik hodisadir<sup>46</sup>." Bu yo'nalish mamlakatimiz ijod olamiga kirib kelganiga o'ttiz yildan oshgan bo'lsa-da, bu oqim "bizga kerakmi" deydiganlar, "Modernizm" va "Postmodernizm"ni tushunarsiz adabiyot deb ataydiganlar ko'p. Boshqa bir toifadagilar esa har qanday ijod yashashga haqli degan g'oyani ilgari surishadi. Shoir Bahrom Ro'zmuhammad bu borada o'z mulohazalarini bildirar ekan hadeb oqimlar nomini ta'kidlayverish odamlarda xuddiki, allergiya qo'zg'ab qo'yishi ham bor gap deydi. "Biz modernchi deyilganimiz sari xalq orasida o'quvchilarimiz kamayib borayotir. Poytaxtdan olis-olislardagi ayrim qishloqlarda asarlarini o'qimay turib, modernistlardan darg'azab bo'lib yurganlarni o'zim ko'rganman"<sup>47</sup>.

Modern va postmodern adabiy oqim sifatida munozaralarga, muhokamalarga, tortishuvlarga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, lekin yashashda va rivojlanishda davom etmoqda. Aslini olib qaraganda modern va postmodern yo'nalishi bir -biridan alohida ikki tarmoq emas, aksincha, birinchisi ikkinchisining uzviy davomidir adib Bahrom Ro'zmuhammad bu xususida shunday deydi: "Menimcha, postmodernizm modernizmdan unchalik ham tafovut qilmaydi. Deylik, modernizmni qizil tusga qiyoslasak, postmodernizmni qip- qizil ranga o'xshatsa bo'ladi"<sup>48</sup>.

<sup>46</sup>Qozoqboy Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Kamalak. Toshkent 2016 yil. 377-bet

<sup>47</sup> <https://kh-davron.uz/>. Bahrom ro'zmuhammad she'rlari va fikrlari sahifasi. 10.01.2014 yil

<sup>48</sup> <https://kh-davron.uz/>. Bahrom ro'zmuhammad she'rlari va fikrlari sahifasi. 10.01.2014 yil

Modernizmning bahslarga sabab bo'layotganiga yana bir sabab, unga aniq bir mezon, o'lchov va baho berishining iloji yo'qligidadir. Munaqqid Ozod Sharafiddinov modernizmni "Jo'n hodisa emas deb atasa", yozuvchi Ulug'bek Hamdam modern bu bizdagi mumtoz adabiyotdagi o'xshatish va istioralar bilan bir xil hodisa deydi. O'zbek tili izohli lug'atida esa "Modernizm – modernism XIX asr oxiri va va XX asrda AQSH, Yevropa san'ati va adabiyotida realizm adabiyotiga qarshi bo'lgan an'anaviy shakl va estetikani inkor qiluvchi oqimlarning umumiy nomi", – deb ta'rif berilgan. Bizningcha, modernizm bu – yangilik ham, eskilik ham emas. Modernizm- ijodkor qalbidagi o'zgacha va tushunilishi qiyin bo'lgan fikrdir. Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo'lib, o'ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir "Postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta'sir qilgan keng tarmoqli va g'oyat ziddiyatli ulkan hodisadir. U haqidagi qarashlar ham tugallanmagan. Chunki hodisaning o'zi davom etmoqda. Qayerdagi kaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor deb qaraladi"<sup>49</sup>.

Ba'zilar realizm va modernizmni bir- biriga qarshi, bir- birini inkor qiluvchi ikkita oqim deb hisoblaydi. Lekin Shoir Bahrom Ro'zmuhammad bu ikkita oqim kelajakda bir- birini rad qilmagan holda yangicha rivojlanish yo'liga kirishiga ishonadi. "Bashorat qilishni unchalik xush ko'rmayman. Ammo menga shunday tuyulyaptiki, 2030- yillarga kelib nazmda ham, nasrda ham buyuk ko'tarilishlar maydonga chiqadi. Realizm va Modernizm boshqacha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi"<sup>50</sup>. Bahrom Ro'zmuhammad realizm va modernizmni kelajakda yuksalishini bashorat qilgan ekan bu islom dini, so'fiylikka bo'lgan qiziqish hisobiga yuz berishini ta'kidlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Bahrom Ro'zmuhammad bugungi o'zbek adabiyotida o'z so'ziga, uslubiga, ijodiga, badiiy tafakkuriga ega bo'lgan modernchi shoirdir. Uning she'rlari insonga o'zgacha kayfiyat baxsh etadi. Shoir o'zining ijodi bilan bugungi o'zbek adabiyotiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qozoqboy Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Kamalak. Toshkent 2016 yil. 377-bet
2. <https://kh-davron.uz/>. Bahrom ro'zmuhammad she'rlari va fikrlari sahifasi. 10.01.2014 yil
3. Ulug'bek Hamdam. Jahon adabiyoti: Modernizm va Postmodernizm. Akademnashr.Toshkent. 2020 y. 5-bet

<sup>49</sup> Ulug'bek Hamdam. Jahon adabiyoti: Modernizm va Postmodernizm. Akademnashr.Toshkent. 2020 y. 5-bet

<sup>50</sup> <https://kh-davron.uz/>. Bahrom ro'zmuhammad she'rlari va fikrlari sahifasi. 10.01.2014 yil